



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI NUTQIDAGI NOVERBAL VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna
*Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyatining barcha tarkibiy qismlariga, xususan, uning kommunikativ-nutqiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Yangi sharoitlarda pedagog faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lib qolmoqda. Aynan nutq orqali u o'quvchilarga axborot beradi, ularni ishonтиради va ta'sir ko'rsatadi, nutqiy ifoda namunalarini ko'rsatadi hamda shu orqali ta'limning uch asosiy maqsadini – o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni amalga oshiradi.

Pedagogik nutqiy muloqotning samarali bo'lishida paralingvistik vositalar majmuasi katta rol o'ynaydi. Ular nutq mazmunini boyitadi, unga ekspressivlik qo'shadi va umuman o'quvchilar bilan muloqotni yanada mazmunli qiladi. Ushbu vositalardan maqsadli va uyg'un tarzda foydalanish o'qituvchiga o'quv jarayonini samaraliroq tashkil etishga, ta'limiy faoliyatga qulay sur'at berishga hamda o'quvchilarning qabul qilish mexanizmlariga kompleks va aniq ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Noverbal vositalar, paralingvistik usullar, fonatsion vosita, ekspressivlik, imo-ishora, yuz ifodasi, tana harakati, ovoz balandligi, nutq sur'ati, pauza, intonatsiya, ekstralingvistik aspect, kommunikativ vaziyat.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РЕЧИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Абдувалиева Нодира Алишеровна
*Ферганский государственный университет, доцент; доктор философии (PhD)
по филологическим наукам*

Аннотация

В процессе модернизации современной системы образования возрастают требования ко всем структурным компонентам профессиональной деятельности учителя, в частности к его коммуникативно-речевой компетентности. В новых условиях основным инструментом педагогической деятельности по-прежнему остается речь. Именно посредством речи учитель передает учащимся информацию, убеждает их и оказывает воздействие, демонстрирует образцы речевого выражения и тем самым реализует три основные цели образования — обучение, воспитание и развитие.

В обеспечении эффективности педагогического речевого общения большую роль играет совокупность паралингвистических средств. Они обогащают содержание речи, придают ей экспрессивность и в целом делают общение с учащимися более содержательным. Целенаправленное и гармоничное использование данных средств помогает учителю более эффективно организовать учебный процесс, задать благоприятный темп образовательной деятельности, а также оказывать комплексное и точное воздействие на механизмы восприятия учащихся.

Ключевые слова: Невербальные средства, паралингвистические методы, фонационные средства, экспрессивность, жесты, мимика, движения тела, громкость голоса, темп речи, пауза, интонация, экстралингвистический аспект, коммуникативная ситуация.

STYLISTIC FEATURES OF NONVERBAL MEANS IN THE SPEECH OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna

*Fergana State University, Associate Professor; PhD (Doctor of Philosophy) in
Philology*

Abstract

In the process of modernizing today's education system, the requirements for all structural components of a teacher's professional activity, particularly for their communicative and speech competence, are increasing. Under new conditions, speech remains the main tool of pedagogical activity. It is through speech that the teacher conveys information to students, persuades and influences them, demonstrates models of verbal expression, and thereby fulfills the three main objectives of education — teaching, upbringing, and development.

A significant role in ensuring the effectiveness of pedagogical verbal communication is played by the complex of paralinguistic means. These means enrich the content of speech, add expressiveness to it, and generally make communication with students more meaningful. The purposeful and harmonious use of these means helps the teacher organize the educational process more effectively, set a favorable pace for educational activity, and exert a comprehensive and precise influence on students' perception mechanisms.

Keywords: Nonverbal means, paralinguistic methods, phonational means, expressiveness, gestures, facial expressions, body movements, voice volume, speech rate, pause, intonation, extralinguistic aspect, communicative situation.

Bugungi kunda o'qituvchi nutqining paralingvistik jihati yetarlicha o'rganilmayapti, uning vazifalari, vositalari va qo'llash metodikasi yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur masalani tadqiq qilishning dolzarbligini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida so'zlashuv nutqi bilan bir qatorda paralingvistik vositalardan foydalanadilar. Paralingvistik vositalar–nutq jarayonining mazkur tilda ifodalanishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, biroq ma'noni to'ldirish yoki kuchaytirish vazifasini bajara oladigan vositalardir. Jumladan, imo-ishora, yuz ifodasi, tana harakati, ovoz balandligi, nutq sur'ati, pauza, intonatsiya va shunga o'xshash unsurlar pedagogik muloqotda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanish bosqichi ularning e'tiborini ko'proq o'qituvchining harakatiga, ohangiga, imo-ishoralariga qaratishi bilan ajralib turadi (Brown, 2007).

Ta'lim sohasida amalga oshiriladigan pedagogning professional nutqi uning barcha faoliyat komponentlarining yuqori darajada ahamiyatini belgilaydi. Ekstralingvistik aspekt o'qituvchining nutqida, avvalo, uning bajaradigan funksiyalari va muayyan kommunikativ vaziyat sharoitlari bilan belgilanadi, bu esa pedagogik muloqotda lingvistik va paralingvistik vositalarni tanlashga ta'sir qiladi.

O'qituvchining professional nutqining asosiy xususiyati ta'limning uchta asosiy maqsadi bilan, ya'ni o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Bu maqsadlar ta'lim sohasining asosiy vazifasi — jamiyat a'zolarini ijtimoiylashuvini ta'minlash bilan bog'liq, ya'ni shaxsning jamiyatda to'liq huquqli a'zo sifatida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ma'lumotlar, normalar va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni. Bu jarayon, avvalo, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va shaxsning yangi rollarni o'zlashtirish bilan bog'liq [Andreeva 2003].

ADABIYOTLAR TAHLILI

60-yillarda tilshunoslikda paralingvistik yoʻnalishdagi asarlar yuzaga keldi va ishoradagi xodisalar aloqa-aralashuv vositasi deb qaralib, tilshunoslar tomonidan oʻrganila boshlandi. Chunki soʻzlovchi tomonidan yuborilgan axborotni tinglovchi toʻlaligicha qabul qilib olishi uchun fikrni toʻldirib keluvchi, unga yondosh boʻlgan imo-shora tilini muttasil darajada oʻrganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir.

Pedagogik muloqotni oʻrganish bilan A.B.Dobrovich, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, Y.L.Kolominsky, S.V.Kondratyeva, N.V.Kuzmina, T.A. Ladyzhenskaya, A.A.Leontyev va boshqalar shugʻullanishgan.

Bu holni oʻzbek tilshunoslari S.Ibrohimov, K.Nazarov, O.Usmonov, E.Begmatov va boshqalar tomonidan alohida taʼkidlangan. Unda nutq odobi, madaniyati bilan bogʻliq masalalarni oʻrganishning muhim ekanligi aytiladi. Shundan soʻng mazkur masalaga jiddiy eʼtibor qaratildi. Oʻzbek tilshunolaridan S.Ibrohimov, R.Qoʻngʻurov, Y.Tojiyev, X.Abdurahmonov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, S.Moʻminov, M.Saidxonov, Sh.Iskandarovalar nutq madaniyatiga oid izlanishlar olib bordilar. Chunonchi, S.Moʻminovning “Oʻzbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari”, M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va ularning oʻzbek tilida ifodalanishi”, Sh.Iskandarovanning “Oʻzbek nutq odatining muloqot shakllari” singari ishlari eʼtiborga molikdir.

Nomlari taʼkidlab oʻtilgan mualliflarning ishlaridan maʼlum boʻladiki, oʻzbek tilshunosligida ham nutq madaniyati va uning nazariy masalalari boʻyicha anchagina tadqiqotlar oʻtkazilgan. Bu izlanishlarning aksariyatida nutq madaniyatining ayrim tomonlarini uslubiy yoki pedagogik maqsadda yoritib berilgan.

Gʻ.Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish”, A.Nurmonovning “Oʻzbek tilining paralingvistik vositalari haqida” kabi ishlarida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Paralingvistika boʻyicha bir qancha tadqiqotlar qilingan va qilinayotgan boʻlsa -da, mazkur sohaning hali ochilmagan qirralari talaygina.

TAHLIL VA NATIJALAR

Noverbal vositalarni alohida sistema sifatida oʻrganishga qiziqish paralingvistikaning fan sifatidagi shakllanishiga sabab boʻldi. Keyingi davrlargacha ekstralingvistik hodisalar bilan paralingvistik hodisalar bir-biri bilan farqlanmasdi. Shuning uchun norval vositalarni oʻrganuvchi tilshunoslikning sohasi turlicha nomlar bilan atalib kelindi. Soʻnggi paytlarda ekstralingvistika bilan paralingvistika bir-biridan ajratilyapti. Masalan, A.S.Axmanova tilshunoslikni “makrolingvistika” termini bilan ifodalab “makrolingvistika” ni “paralingvistika”, “mikrolingvistika”, “mentalingvistika” kabi sohalarga ajratib koʻrsatadi va paralingvistikaning til ifodasining fizik tabiati va mohiyati bilan shugʻullanishini taʼkidlaydi. “Paralingvistika” esa “Mentalingvistika”, “psixolingvistika” va “antropolingvistika” ga boʻlinib ular til va tafakkur, ularning oʻzaro munosabatlari, til va jamoat, tilning jamiyatdagi roli, jamiyat taraqqiyoti, unda boʻladigan oʻzgarishlarning tilga taʼsiri, tilning aloqa vositalari sifatidagi vazifasi, turli til aloqalarini bajarishdagi oʻrnini tekshiradi. “Paralingvistika” va “Mentalingvistika”, “Ekstralingvistika” degan umumiy bir nom bilan ataladi va “paralingvistika”, “mentalingvistika” uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

“Paralingvistika” esa kommunikatsiya uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalarini oʻrganadi.

“Paralingvistika” lotincha “para” (yondosh), “langua” (til) soʻzlaridan olingan boʻlib, “tilga yondosh”, “til bilan birga qoʻllanuvchi” maʼnosini ifodalaydi. Bu termin birinchi marta A.Xill tomonidan tavsiya etilgan. Keyinchalik Treyger bu sohaga oid asar yozib, uning mohiyatini substansiyasini (bu fanning predmeti, vazifasi, oʻrganiladigan hodisalar mohiyati va boshqalar) belgilab berdi.

Oʻqituvchining professional kompetentsiyasi eng avvalo oʻqitilayotgan fan boʻyicha erkin bilimga ega boʻlishi va ushbu bilimlarni oʻquvchilar bilan boʻlisha olish qobiliyati orqali

namoyon bo'ladi. Bu pedagogik mahorat tarkibiy qismi boshqa barcha professional muvaffaqiyat komponentlarini ham belgilaydi. Masalan, dars materialini erkin bilish o'quvchilarga ma'lumotni ularning qabul qilish xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada xilma-xil va ijodiy usulda yetkazishga imkon beradi.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishni o'zining ustuvor vazifasi sifatida bajarish jarayonida pedagog to'g'ri nutqiy xulq-atvor namunalarini namoyish qilishi lozim: o'zaro munosabatlarni tashkil qilish, boshqalarni tushunish, fikr va his-tuyg'ularni ifodalash, ta'sir ko'rsatish va niyatlarni boshqa odamlarning maqsad va ehtiyojlariga moslash kabi ko'nikmalar.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayoni pedagogdan shuningdek, maxsus kompetensiya talab qiladi — aniq, tushunarli va qarama-qarshi bo'lmagan signalni ham verbal, ham nonverbal darajada yaratish va yetkazish qobiliyati. Bu talab ekstralingvistik aspekt bilan belgilanadi va lingvistik vositalar hamda paralingvistik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, o'qituvchi maksimal darajada o'quvchilar bilan verbal va nonverbal muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu uning professional kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, muloqot faqat o'qitish jarayonini emas, balki uzluksiz o'qituvchi-o'quvchi o'zaro ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Faoliyat yondashuvidan qaraganda, «muloqot — bu odamlar o'rtasidagi kontaktlarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, ko'p qirrali jarayoni bo'lib, u hamkorlikdagi faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadi va axborot almashish, bir xil o'zaro harakat strategiyasini ishlab chiqish, boshqa odamni qabul qilish va tushunishni o'z ichiga oladi» [Zimnyaya 2009: 24].

Mazkur jarayonda o'qituvchining ovoz balandligi va ohangi bolalarning darsda qatnashish faolligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Masalan, ortiqcha baland yoki bir tekis ohang bolalarni tez charchatishi, e'tiborini pasaytirishi ehtimoldan holi emas. Buning aksiga, o'qituvchining ifodali, o'rta balandlikdagi, zaruratga ko'ra pasayib-yuksalib turadigan ovoz diapazoni tinglovchilarni jalb qilishga yordam beradi (Samovar, Porter & McDaniel, 2009). Shuningdek, yuz ifodasi ham bolalarga ma'lumot yetkazishda juda muhim. Tabassum, ko'z orqali muloqot, xush kayfiyatni ifodalovchi mimikalar ular tomonidan darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi, ishtirokni faollashtirishi kuzatilgan (Abdullayeva, 2019).

MUHOKAMA

O'qituvchining sinfda yurish-turish tarzi, jismoniy masofa, tana harakati, qo'l-oyoq harakatlari kabi xatti-harakatlar ham paralingvistik vositalar sirasiga kiradi. Guruh bilan ishlash yoki individual topshiriqlarni kuzatish mobaynida o'qituvchining harakatlari qaysi o'quvchiga qancha e'tibor berayotganini ham ifodalashi mumkin. Bunday bevosita va bilvosita signallar boshlang'ich sinf bolalariga kuchli ta'sir o'tkazadi, chunki ular o'zlariga nisbatan e'tibor yoki e'tiborsizlikni ko'proq shu xatti-harakatlar orqali his etadilar (Karimova, 2020). Shuningdek, ijobiy imo-ishoralar dars jarayoniga jalb etish, rag'batlantirish va ular orasida ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashda o'ta muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Paralingvistik vositalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, darsga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani kuchaytirishdagi ta'sirchan usullardan hisoblanadi. Masalan, o'qituvchining nazariy ma'ruzasi paytida o'zgarish ohang, bir tekisda gapirish, imo-ishoralarsiz nutq yuritish bolalarni passiv tinglovchiga aylantiradi. Aksincha, intonatsiya va ohang o'zgarishi, keragida pauza qilish, savol berish jarayonida muloqotga xos harakatlardan foydalanish, ko'z bilan aloqada bo'lish, boshni jildiratish yoki tasdiq ifodalovchi imo-ishoralar bilan qo'llab-quvvatlash darsga ijobiy muhit baxsh etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar hayajonlanib, javob berishda qiynaladigan vaziyatlar ko'pincha uchrab turadi, shu bois o'qituvchining muloyim tabassumi yoki rag'batlantiruvchi imo-ishoralari ularga o'z fikrini dadil aytishlari uchun ruhiy yordam beradi (Muminova, 2018).

O'zbek tilidagi adabiyotlarda paralingvistik vositalarning turli guruhlariga bo'linishi, pedagogik muloqotda qo'llash usullari xususida turli tadqiqotlar mavjud. Xususan, Nazarov (2015) o'qituvchining nutqdan tashqari harakatlari o'quvchilarda ishonch, motivatsiya va

ijtimoiy faollik shakllanishiga xizmat qilishini ta'kidlagan. G'afforova (2020) esa paralingvistik vositalar orqali sinfdagi ijobiy psixologik muhitni ta'minlash bo'yicha tajribalarni o'rganib, bu orqali baholash jarayonini ham qulayroq tashkil etish imkoni yaratilishiga e'tibor qaratadi. Xorijiy adabiyotlarda esa Mehrabian (1972) paralingvistik ifoda unsurlari nutqdagi ma'no va his-hayajonning 90 foizdan ortig'ini tashkil etishini keltirib o'tgan bo'lsa, Nunan (1991) o'qitish jarayonida o'qituvchi nutqi muvaffaqiyatini aynan paralingvistik faktorlar bilan bog'laydi.

Darsning tuzilishi va pedagogik muloqotning maqsadga muvofiqligi lingvistik va paralingvistik vositalardan foydalanishni talab qiladi, chunki kontakt va o'zaro ta'sir asosan vizual va akustik kanallar orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Shunday qilib, ekstralingvistik aspekt o'qituvchining professional faoliyatiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni, muloqot funksiyalarining darajasini, o'qituvchining fan va pedagogik muloqot bo'yicha kompetentsiyasini, nutqni tuzish va darsni tashkil qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'qituvchining samarali nutqini amalga oshirishiga va lingvistik hamda paralingvistik vositalarni tanlashiga ta'sir qiladi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kommunikatsiyasida paralingvistik vositalar dars jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilarda qiziqish, hamkorlik, ijodkorlik va ishonch muhitini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Muloqotning faqat so'zlardan iborat emasligi, nutqni to'ldiruvchi imo-ishora, intonatsiya, yuz ifodalari, tana harakatlari kabi unsurlar pedagogik strategiya va metodikaning muhim bo'lagi ekanini unutmaslik kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi paralingvistik vositalardan ongli ravishda foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga nima demoqchi ekanini aniqroq va samaraliroq yetkazib, ularning darslarda faolligini oshirishi, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva M. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
2. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007
3. Chambers G. Teaching Foreign Languages in Schools. –London: Routledge, 2017
4. G'afforova, N. Boshlang'ich sinf ta'limida nutq madaniyati. –Toshkent: Istiqlof, 2020.
5. Karimova R. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Mehrabian A. Nonverbal Communication. –New York: Aldine-Atherton, 1972
7. Muminova, D. Kommunikativ metodologiya asoslari.–Toshkent: O'qituvchi, 2018
8. Nazarov Q. Pedagogik mahorat. –Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2015.
9. Nunan D. Language Teaching Methodology. –New York: Prentice Hall, 1991
10. Samovar, L., Porter, R. & McDaniel, E. Communication Between Cultures. – Boston: Wadsworth, 2009.